



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA ISHQ TALQINI

**Qudratova Muborak Shuxratovna**  
BuxDU ilmiy izlanuvchisi

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada Asqar Mahkam she'rlarida kuylangan ishq mavzusi haqida so'z boradi. Ishq ham tasavvufiy ham ijtimoy muammolar talqini sifatida shoir ijodi misolida yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ishq, sevgi, husni mutlaq, malomat, haqorat, alomat, asorat, adovat, haq va haqiqat.*

Istiqlol o'zbek she'riyatini o'z o'zanlariga yuz burishiga imkon berdi. Buni birgina shu davr she'riyatida ilohiy-irfoniy, diniy-tasavvufiy g'oyalarning aks etishida, mazkur g'oyalar tasviri uchun qo'llangan ifoda uslubning o'ziga xosligida, mumtoz janrlarga murojaat hamda obraz tizimidagi yangilanishlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, mumtoz adabiyot oziqlangan sarcharmalardan biri tasavvuf ta'limotidir. Bu ta'limotning o'zak masalasi ISHQ hisoblanadi. Ishq keng tushuncha sifatida olam va bani bashar muammolari nuqtai nazardan talqin qilinadi. Olamning ham, odamning ham mohiyati ishqga munosabatiga qarab baholanadi. Chunki ishq mohiyatdan keng tushuncha.

**Sevgi** bu – inson tabiatining zavqlantiruvchi huzurbaxsh lazzatga mayl etishidir. Sevgining oliy darajasi **ishq** deyiladi. Oshiqlar o'z ma'shuqalarining visoliga yetishmoq uchun hech narsani, hattoki jonlarini ham ayamagaylar. Hazrati Yusufni sevib, tillarda doston bo'lgan Zulayho buning yorqin misolidir, -deb yozadi Abu Homid G'azzoliy o'zining “Mukoshafat-ul qulub” asarida.

Ishq-muhabbat o'lmas mavzu sifatida qalam ahllari tomonidan kuylanib kelingan “eski mavzu” bo'lsa-da, har bir davr she'riyatida unga o'ziga xos tarzda yondoshuvlar, munosabatlar kuzatiladi. **“Ishq** - tasavvufda husni mutlaqqa – **Allohga** bo'lgan kuchli, shiddatli sevgi bo'lib, tariqatning eng muhim maqomlaridan biri hisoblanadi. Unga faqat komil insongina yetishishi mumkin. Bu maqomda oshiqda shunday holat yuz beradiki, u o'zidan begona, noogoh, zamonu makondan ozod, mahjub irokida kuyadi, yonadi va unga yetishishga jondan kechib bo'lsa ham astoydil intiladi. Xaqiqiy ishq - husni mutlaqqa, majoziy ishq odam va olam go'zalligiga bo'lgan oshiqlikdir”.[2.373]

Istiqlolning ilk epkinlari esgan paytdayoq Haq va haqiqatni baralla kuylagan shoirlardan biri Asqar Mahkam ijodida diniy, tasavvufiy, irfoniy mavzular sirasida “ishq“ ayricha mehr bilan kuylandi. Hatto bir she'rida lirik qahramon sifatida o'zini “men-ishqparast, illo ishqparast” deb ataydi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Malomat bor, haqoratlar bor,  
Alomat bor , asoratlar bor,  
Adovat bor, hamoqatlar bor,  
men-ishqparast, illoishqparast!

Mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy she'riyatda ham ishq ilohiy va majoziy ma'nolarida talqin qilinadi. Shoir oshiq qalbida ishq va uning iztiroblaridan hosil bo'lgan malomat, haqorat, alomat, asorat, adovat, hamoqatlarni birin-ketin ta'kidlash orqali o'zining ishqparastligini uqtiradi. Bu tushunchalar bevosita tasavvuf ta'limotining o'zak muammolari hisoblanadi. Haqiqiy ishq va oshiqlikning alomat va asoratlari bo'lgani singari, malomatu haqoratlar, adovatu hamoqat (ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik)lar uning hamrohi. Biroq haqiqiy oshiq ishqdan keladigan ozorlardan qo'rqmaydi, balki undan keladigan kifoyat, inoyat, ijozat, ibodatlar, shifoat, shifoatlar borligidan umidvor bo'ladi:

Kifoyat bor, inoyatlar bor,  
Ijizat bor, ibodatlar bor,  
Shifoat bor, shifoatlar bor,  
Men ishqparast, illo ishqparast!...

Asqar Mahkam ishq mavzusini kuylashda mumtoz an'analar va janrlarga ham tayanadi. Shoir mumtoz she'riyat an'alariga o'zgacha mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ladi. Uning g'azal janridagi she'rlarida hazrat Alisher Navoiy, haqparast Mashrab ijodining ta'siri yaqqol seziladi. Har ikkala ijodkor qalamida ishq o'ziga xos talqinlarda berilgan. Ular ishqni olam yaratilishining asosi, Yaratganning visoliga eltuvchi mayoq, inson vujudini poklovchi kimyo kabi qator sifatlar bilan birga undan keladigan ozorlarni ham o'ziga xos tarzda obrazli tasvirlaydilar. Hazrat Navoiyning "Ko'nglum o'tin zohir etsam, barcha olam o'rtanur" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida oshiqning ishqni "butun olam, to'qquz falak"ni o'rtagani badiiy ifodalangan.

Ko'nglum o'tin zohir etsam, barcha olam o'rtanur,  
Shu'lasin gar tortsam, to'qquz falak ham o'rtanur.

Asqar Mahkam "o'rtadi Ishq, Ishq" radifli hazaji musammani solim vaznida yozilgan g'azalida ham ishqning "kuydiruvchi" sifati mubolag'ali tarzda ifodalandi. G'azal 12 baytdan iborat bo'lib, "o'rtadi Ishq, Ishq" radif sifatida takrorlanib kelgan. Qadimgi tilimizda "o'rt" so'zi "yong'in" ma'nosini anglatgan. "O'rtar" so'zi ham shundan kelib chiqqan. Radif sifatida bu so'zning takrorlanib kelishi esa g'azaldagi g'oyaning bo'rtibroq tasvirlash uchun xizmat qilgan.

Kuyuk bir jon edim, jonu jahonim o'rtadi Ishq, Ishq,



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

So‘ngaklar sirqirab singayki, qonim o‘rtadi Ishq, Ishq.

G‘azalning lirik qahramoni - oshiq. U shunday oshiqki, ishq uning jonu jahoni, qoni, aqlu imoni, zaboni, tovoni, ustuxoni, zamini, osmoni, hayoti, oni, oxiri, nom-nishoni, xatoyi, xonumoni, makoni, yaxshi-yomoni, lomakoni, oshiyonini o‘rtagan.

Alisher Navoiyning quyidagi baytidagi tasvir ham bevosita Asqar Mahkam g‘azali uchun ilhomlanish nuqtasi bo‘lganligini sezish qiyin emas.

Ishq o‘tidin jismi zori notavonim o‘rtading,  
Qaysi jismi zorkim, ruhu ravonim o‘rtading.

Asqar Mahkam g‘azalida ishq mavzusini badiiy talqin qilishda mumtoz an‘analarga ham sodiqlik ko‘zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotda samandar - timsoliga ko‘p murojaat qilingan. “Samandar – afsonaga ko‘ra, go‘yo o‘tdan paydo bo‘lib, o‘t ichida yashaydigan jonivor. Uning o‘tda yonmasligi haqidagi tasavvurlar orqali mumtoz adabiyotda abadiy hayot va ishq g‘oyalari targ‘ib qilingan.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning Yunoniston safari davomida Farhod besh yuz yildan beri g‘or ichra yashayotgan Suhaylo bergan afsonaviy Samandar yog‘ini tanasiga surtish orqali yo‘ldagi g‘ovlarni yengadi. U Ajdarni o‘ldirib, Iskandar va Fariddun boyligini qo‘lga kiritadi. Ahriman devni mahv qilib, qandil ichidagi Sulaymon uzugini oladi. So‘ngra Jamshid jomiga ega bo‘ladi. Daho shoir ajdar, ahriman dev ramziy obrazlari vositasida inson vujudidagi salbiy xususiyatlarga ishora qiladi. Farhod “samandar yog‘i” vositasida bunday nuqsonlardan qutiladi. Demak, samandar – Ishq timsoli. Biroq uning azoblari, qiyinchiliklariga bardosh berish nihoyatda og‘ir.

Asqar Mahkam ham samandarni ishq timsoli sifatida talqin qiladi. Uning oshiqga jon berishini, biroq bu ishq “usruk ko‘z” olovida o‘rtangan oshiqning “ustoxoni”ni kuydirishini mubolag‘ali tasvirlaydi.

Bir usruk ko‘z olovida kuyib yondim samandardek,  
Menga jon berdi, ammo ustuxonim o‘rtadi Ishq, Ishq.

Farhodu Shirin ishq haqiqiy oshiqlar uchun ibrat sanalgani bois mumtoz va zamonaviy she‘riyatda bu obrazlarga ko‘p bora murojaat qilingan. Asqar Mahkam ham g‘azalda talmeh sifatida Farhodu Shirin nomini keltirish orqali ular bilan bog‘liq ishq qissasiga ishora qiladi. Ularning “olam doridin” o‘tganligini ta‘kidlaydi.

Dema Farhodu Majnun o‘tdi olam doridan butkul,  
Hayotim o‘rtadi, har lahza onim o‘rtadi Ishq, Ishq.

“Ey Ishq - baloyijon” g‘azalida shoir Ishqqa murojaat qilib, undan o‘ziga jazo, oshkora sazo berishni, yondirishini, kuydirishini, dardiga davo berishini so‘raydi, negaki, Ishq – baloyi jonuning azali. Ushbu g‘azal boshdan oxir ichki qofiyalangan.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

Boburning g‘azali musajja‘larini esga solib yuboradigan shoirning ishqqa qaratilgan so‘rovlarida ruhoniyatidagi nurni tanigan oshiq nolalari ifodalangan. Sado bergil, xato bergil, aso bergil, mato bergil tarzida kelgan ichki qofiyalar g‘azalning ravonligini ta‘minlagan, musiqiy ohangni yuzaga keltirgan. Oshiq qalbidagi ishq alangasi shu qadar kuchliki, hatto mahshar ham unga chiday olmaydi. Ishq o‘tini azal qismati (Navoiy) deb qabul etib, oshiq o‘z taqdirini va undgi barcha yaxshiyu yomon voqealarni rizolik bilan kutib oladi.

Gar Yor jafo istar, payvasta xato istar,

Umringa qazo bergil, ey Ishq - baloyijon![1.64]

Xulosa qilib aytganda, Asqar Mahkam she‘riyatida ishq keng tushuncha sifatida ham tasavvufiy ham ijtimoiy muammolar talqini uchun xizmat qilgan. Buning uchun shoir mumtoz adabiyotimizning o‘lmas an‘analariga tayangan, ulardan oziqlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Mahkam. "Xaq Nurafshon business". Toshkent-2021. (Askar Mahkam. Haq Nurafshon business". Tashkent-20211. Askar Mahkam. Haq Nurafshon business". Tashkent-2021)
2. Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим. Т.: Мувороуннахр, 2003. 373-бет.
3. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти.// Шеърлят идрок элагидя. Т.: Фан, 2007. (Rahimjonov N. Uzbek poetry of the period of independence.// Poetry in the sieve of perception. Т.: Science, 2007)
4. Ҳамдам У. Янгиланиш эхтиёжи. – Т.: Фан, 2007.78-б. (Hamdam U. The need for renewal. - Т.: Science, 2007. p.78)
5. Олим Тошбоев. Ҳақ ошиғи ёхуд чин маънода шахс бўлиб ўтган адиб. <https://uza.uz/uz/posts/a-oshi-i-yekhud-chin-manoda-shakhs-b-lib-tgan-adib--15-08-2020>